

Husenova Aziza Sharipovna  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
dotsenti, pedagogika  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
[aziza\\_husenova@buxdpi.uz](mailto:aziza_husenova@buxdpi.uz)

## BLUM TAKSONOMIYASI VA INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TASHKIL ETISH YO'LLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini shakllantirishda **Blum taksonomiyasi mezonlari** va **interfaol ta'lim metodlaridan** samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda ta'lim maqsadlarini bosqichma-bosqich belgilash, har bir kognitiv darajaga mos interfaol usullarni tanlash, o'quvchilarning fikrlash darajasini chuqurlashtirish va darslarda ularning faol ishtirokini ta'minlash yo'llari tahlil qilingan. Maqolada dars mazmunini taksonomik yondashuv asosida rejalashtirish, matn ustida ishlashda bilishdan baholashgacha bo'lgan topshiriqlar tizimini yaratish hamda o'qituvchilarning metodik savodxonligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari o'qish savodxonligi darslarining samaradorligini oshirish va o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Blum taksonomiyasi, interfaol metodlar, o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, kognitiv yondashuv, tanqidiy fikrlash, dars maqsadi, metodik yondashuv, amaliy ko'nikmalar, ta'lim sifati.

## ТАКСОНОМИЯ БЛЮМА И ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ НА ОСНОВЕ УРОКОВ ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ СПОСОБЫ ОРГАНИЗАЦИИ

**Аннотация.** В данной статье освещаются вопросы эффективного использования критериев таксономии Блума и интерактивных методов обучения в формировании читательской грамотности учащихся начальных классов. В исследовании были проанализированы способы поэтапного постановки образовательных целей, выбора интерактивных методов, подходящих для каждого когнитивного уровня, углубления уровня мышления учащихся и обеспечения их активного участия в занятиях. В статье разработаны предложения по планированию содержания урока на основе таксономического подхода, созданию системы заданий от познания до оценки при работе над текстом, а также по повышению методической грамотности учителей. Результаты исследования служат повышению эффективности уроков грамотности чтения и формированию у учащихся навыков самостоятельного, критического мышления.

**Ключевые слова:** таксономия Блума, интерактивные методы, грамотность чтения, начальное образование, когнитивный подход, критическое мышление, цель урока, методический подход, практические навыки, качество образования.

## BLUM TAXONOMY AND INTERACTIVE METHODS BASED ON READING LITERACY LESSONS WAYS TO ORGANIZE

**Annotation.** This article covers the criteria for the taxonomy of Blum and the effective use of interactive educational methods in the formation of reading literacy of elementary students. The study analyzed ways to stage educational goals, choose interactive methods appropriate to each cognitive level, deepen students' level of thinking, and ensure their active participation in classes. The article developed proposals for planning the content of the lesson on the basis of a taxonomic approach, creating a system of tasks from knowledge to assessment when working on the text, as well as improving the methodological literacy of teachers. The results of the study serve to improve

*the effectiveness of reading literacy classes and to form independent, critical thinking skills in students.*

**Keywords:** *Blum taxonomy, interactive methods, reading literacy, primary education, cognitive approach, critical thinking, lesson goal, methodological approach, practical skills, educational quality.*

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri — o'quvchilarda nafaqat bilimlarni egallatish, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, tahlil qilish, baholash va amaliy faoliyatga tayyorgarlik darajalarini rivojlantirishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bu jihatdan alohida e'tiborni talab qiladi, chunki bu bosqichda o'quvchilarning keyingi rivojlanishiga zamin yaratuvchi asosiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalar shakllanadi. O'qish savodxonligi — bu bosqichdagi asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib, o'quvchilarda matnni o'qish, tushunish, sharhlash, fikr yuritish va izohlash kabi kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi oliy va umumta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xalqaro tajribalarga tayangan holda ilg'or ta'lim standartlarini joriy etish, nazariy bilimlardan amaliy ko'nikmalarga asoslangan o'qitish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish vazifasi belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangilash, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan, tanqidiy va mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlash zamon talabi sifatida e'tirof etilgan. Ushbu yondashuvlar nafaqat oliy ta'lim, balki maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida ham metodik jarayonni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Ayniqsa, o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning tafakkur bosqichlarini rivojlantirish, ularni matnni chuqur tahlil qilish, fikr yuritish va baholashga yo'naltirish uchun zamonaviy metodlardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir. 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga oid PF–158-son Farmonida ham ta'lim sifatini oshirish, o'qitishning mazmuniy asoslarini takomillashtirish, zamonaviy metodlar va ilmiy-tadqiqot yondashuvlarini joriy etish muhim yo'nalishlar qatorida belgilandi. Bunda bilimlarni shunchaki yod olish emas, balki o'quvchilarda tahlil qilish, xulosa chiqarish, baholash kabi yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni shakllantirish zarurati alohida ta'kidlangan.

Mazkur siyosiy-ijtimoiy kontekstdan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida **Blum taksonomiyasiga** asoslangan maqsadli yondashuvni joriy etish va **interfaol metodlarni** uyg'unlashtirgan holda qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv bolalarda chuqur fikrlash, mustaqil qaror chiqarish, matnga nisbatan faol munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar nafaqat an'anaviy metodlardan, balki zamonaviy nazariy yondashuvlardan foydalanishlari zarur. Shunday nazariyalardan biri — Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan va 1956-yilda ilgari surilgan "Blum taksonomiyasi"dir. Bu taksonomiya o'quvchilarning o'quv faoliyatini kognitiv (bilish), affektiv (hissiy-irodaviy) va psixomotor (harakatga oid) domenlarga ajratgan holda ularni ierarxik tartibda rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, har bir domen o'ziga xos bosqichlarga ega. Mazkur yondashuv o'qituvchilarga dars maqsadlarini aniq belgilash, o'quvchilarni o'zlashtirish darajalariga ko'ra baholash, ularga mos topshiriqlar tayyorlash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida o'qish savodxonligi darslarining metodik asoslarini takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Blum taksonomiyasining kognitiv domeni o'quvchilar tomonidan bilimlarning egallanishi, ularning qayta ishlanishi va yangi vaziyatlarda qo'llanilishi bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ushbu domen oltita asosiy bosqichdan tashkil topgan: bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu bosqichlar alohida e'tibor talab qiladi, chunki ularning har biri o'quvchining fikrlash darajasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilgan. Masalan, "bilish" bosqichida o'quvchi muayyan faktlar, hodisalar va tushunchalarni eslab qoladi; "tushunish" bosqichida u bu bilimlarni o'zlashtiradi va izohlaydi; "qo'llash" bosqichida esa ularni yangi holatlarda qo'llaydi. "Tahlil" bosqichida o'quvchi

ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi, "sintez" bosqichida yangi g'oya yoki mahsulot yaratadi, "baholash" bosqichida esa o'z fikrini asoslab berish orqali tanqidiy yondashuvni namoyon etadi. Aynan shu bosqichlarning har biriga mos topshiriqlar tuzish o'qituvchidan metodik yondashuvni to'g'ri tanlashni talab etadi. Shuningdek, affektiv domen o'quvchining hissiy-irodaviy olamiga ta'sir ko'rsatib, unda o'rganishga qiziqish uyg'otish, dars mazmuniga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Affektiv domenning bosqichlari qabul qilish, javob berish, qadrlash, tashkil etish va xarakterlashdan iborat bo'lib, bu bosqichlarda o'quvchining shaxsiy fazilatlari, mas'uliyat hissi, do'stona munosabatlarga tayyorligi, muomala madaniyati va ichki motivatsiyasi shakllanadi. Boshlang'ich ta'limda bu domen orqali o'quvchilarda Vatanga muhabbat, o'zaro hurmat, muloqot madaniyati, milliy qadriyatlarga sadoqat singari ijtimoiy-hissiy fazilatlarni shakllantirish mumkin.

Blum taksonomiyasining uchinchi domeni — psixomotor domen — o'quvchilarning harakat va jismoniy faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bu domen yozuv ko'nikmalarini shakllantirish, rasm chizish, kesish, yopishtirish, jismoniy mashqlarni to'g'ri bajarish kabi faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Dars jarayonida bu domenni rivojlantirish orqali o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, ayniqsa, harakat koordinatsiyasi, diqqat va sabr-toqat ko'nikmalari mustahkamlanadi. Psixomotor domen quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: imitatsiya (kuzatib takrorlash), manipulyatsiya (yo'riq asosida bajarish), aniqlik (harakatni xatosiz bajarish), artikulyatsiya (bir necha harakatni uyg'un bajarish) va tabiiylashtirish (harakatni avtomatik darajada bajarish).

O'qish savodxonligi darslarida yuqorida ko'rsatilgan har bir domen asosida dars maqsadlarini shakllantirish va shu maqsadlarga mos topshiriqlar tuzish o'qituvchining metodik mahoratini oshiradi. Masalan, "O'simliklar" mavzusida dars o'tilayotganda quyidagicha maqsad va topshiriqlar ishlab chiqilishi mumkin: tushunish bosqichida — o'quvchi o'simlik qismlarini ta'riflab bera oladi; qo'llash bosqichida — o'quvchi rasmlar asosida o'simliklarni guruhlarga ajrata oladi; sintez bosqichida — o'quvchi o'z tasavvuridagi o'simlikni chizib, uning qismlarini izohlab beradi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarda nafaqat bilimni chuqur egallashga, balki tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim muhiti yaratishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, analitik yondashuv asosida Blum taksonomiyasi mezonlarini qo'llash o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Bu orqali differensial yondashuvni amalga oshirish, o'quvchilarning faolligini oshirish, baholashning aniq va obyektiv tizimini shakllantirish mumkin. Darsda qo'llanilayotgan topshiriqlar har bir bosqich bo'yicha o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlashga, ularning bilim darajasini baholashga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi sharoitida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, axborotni tahlil qilish, muammoga yechim topish va o'z fikrini asoslash kabi ko'nikmalarni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu ko'nikmalarni samarali tarzda rivojlantirishda esa Blum taksonomiyasining har bir bosqichi o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa, o'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash, savollarga javob berish, xulosa chiqarish, matndan tashqari kontekstda fikrlash faoliyatlarini bosqichma-bosqich tashkil etish orqali o'quvchilarning fikr yuritish darajasini oshirish mumkin. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, masalan, klaster, insert, fasetli o'qitish, Venn diagrammasi kabi usullarni Blum taksonomiyasi bosqichlariga integratsiyalash orqali dars samaradorligini oshirish mumkin. Misol uchun, "tahlil" bosqichida Venn diagrammasidan foydalanish orqali matndagi obrazlar yoki hodisalarning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, "sintez" bosqichida klaster orqali yangi g'oya ishlab chiqish o'quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, dars maqsadlarini faqat "bilish" va "tushunish" bosqichlarida to'xtatib qo'yish, o'quvchilarning fikrlash darajasini chuqurlashtirishga to'liq imkon bermaydi. Shu sababli yuqori kognitiv bosqichlar — "tahlil", "sintez", "baholash" — bosqichlariga mo'ljallangan topshiriqlarni muntazam qo'llash zarur. Bu esa o'quvchilarni nafaqat bilim oluvchilar, balki bilim yaratuvchilar, o'z fikrini mustaqil ilgari sura oladigan subyektlar sifatida shakllantiradi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy

tayyorgarligida ham Blum taksonomiyasi mezonlari asosida dars ishlanmalari tuzish, maqsadlarni bosqichlab aniqlash, baholash vositalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Bu borada pedagogik oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga mos kurslar va amaliy mashg'ulotlar joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar tomonidan maqsadlar faqat umumiy iboralar bilan ifodalansa (masalan: "o'quvchi matnni o'qib chiqadi", "o'quvchi savollarga javob beradi"), bu nafaqat darsni samarali baholashga, balki o'quv jarayonining yakuniy natijasini aniqlashga ham to'siq bo'ladi. Shu sababli dars maqsadlari har bir bosqich bo'yicha aniq, faol "tahlil qiladi", "sintez qiladi", "farqlaydi", "asoslashi kerak" kabi fe'llar orqali ifodalanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Blum taksonomiyasi boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish, o'quvchilarning fikrlash, o'rganish, ijodkorlik va ijtimoiy-hissiy rivojlanishini ta'minlashda muhim metodik vosita hisoblanadi. Ushbu taksonomiya asosida ishlab chiqilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning chuqur bilimga ega bo'lishini, ularni real hayotga tayyorlashni va eng asosiysi, ta'lim jarayonini qiziqarli va mazmunli tashkil etishni ta'minlaydi. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda analitik yondashuv orqali Blum taksonomiyasi mezonlaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini chuqur o'rganish, pedagogik amaliyotga tatbiq etish va doimiy takomillashtirib borish bugungi ta'lim islohotlari doirasida alohida dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axmedova M.Q. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 196 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. – PF-5847-son, 8-oktabr 2019 yil.
3. Islomov N. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 144 b.
4. Xaitova N. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2017. – 130 b.
5. Xoliqova G'.S. Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Samarqand: Zarafshon, 2021. – 168 b.
6. Jo'raeva S. Tanqidiy fikrlash va uning o'quv jarayonidagi ahamiyati. // Pedagogik mahorat jurnali. – 2022. – №4. – B. 45–49.
7. Narzullayev K.S. O'quv jarayonida SWOT tahlil: nazariya va amaliyot. // Eksperimental ta'lim jurnali. – 2022. – №5. – B. 50–54.
8. Ismatov K. Pedagogik texnologiya. – Navoiy: NDU nashriyoti, 2019. – 112 b.
9. Rasulova M. Interfaol usullardan foydalanish samaradorligi haqida. // Boshlang'ich ta'lim jurnali. – 2023. – №2. – B. 28–31.